
Sud-huquq tizimida qanday islohotlar amalga oshirilmoqda?

So`nggi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar fuqarolarhamda tadbirkorlarning huquqiy va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilmoqda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga taqdim qilingan navbatdagi murojaatnomasida sud-huquq sohasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda fuqarolar va tadbirkorlarning odil sudlovga erishish darajasini yuksaltirish hamda adolatli va qonuniy sud qarorlarini qabul qilishni takomillashtirish masalalariga alohida to`xtalib o`tgani bejiz emas.

Bugungi kunda viloyat va unga tenglashtirilgan fuqarolik va jinoyat ishlari bo`yicha sudlar va iqtisodiy sudlar negizida sudyalarning qat`iy ixtisoslashuvini saqlab qolgan holda umumyuridiktsiya sudlari tashkil etilganligi va ma`muriy huquqbuzarlik to`g`risidagi ishlarni ko`rib chiqish vakolatini ma`muriy sudlardan jinoyat ishlari bo`yicha sudlarga o`tkazilganligi fuqarolar va tadbirkorlarning buzilgan huquq va erkinliklarini sud yo`li bilan ishonchli himoya qilishning muhim kafolatiga aylandi.

Ayniqsa, Prezidentimizning 2020 yil 3 sentyabrdagi "Sud hokimiyat organlari faoliyatini raqamlashtirish chora tadbirlari to`g`risidagi" PQ-4818-sonli qarori bilan sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etilishi natijasida fuqarolar va tadbirkorlar masofadan turib murojaat qilishi hamda sud majlisida videokonferentsaloqa tizimidan foydalanib ishtirok etish huquqini bergan bo`lsa, sud xodimlariga esa sudyalor o`rtasida ishlarni avtomatik tarzda taqsimlash, sud qarorlarini internet tarmog`ida e`lon qilish, ijro hujjatlarini elektron shaklda majburiy ijroga yuborish hamdafuqarolar va tadbirkorlik sub`yektlaridan kelib tushgan murojaatlarni ko`rib chiqish jarayonini onlayn ko`zatib borish va sud binolarida interaktiv xizmatlardan erkin foydalanish imkonini bermoqda desak adashmagan bo`lamiz.

Bundan tashqari, sud qarorlarini qayta ko`rish instituti takomillashirilganligi munosabati bilan 2021 yil 12 yanvarda O`zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksi, Ma`muriy sud ishlarini yuritish to`g`risidagi kodeksi, Jinoyat-protsessual kodeksi, Ma`muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksi hamda iqtisodiy protsessual kodekslariga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritildi.

Jumladan, qonunlarga kiritilgan o`zgartirishlarga asosan ishlarni nazorat tartibida ko`rish instantsiyasi to`liq bekor qilindi va jinoyat ishlari bo`yicha birinchi instantsiya sudining hukmi, qarori va ajrimi ustidan apellyatsiya shikoyati berish muddati 10 kundan 20 kunga, fuqarolik mu`muriy (ma`muriy huquqbuzarlik munosabatlaridan kelib chiqadigan ishlar) va iqtisodiy ishlar bo`yicha apellyatsiya shikoyatini berish muddatlari 20 kundan 1 oyga uzaytirildi, iqtisodiy sudlarga kassatsiya tartibida shikoyat berish muddati esa 6 oydan 1 yilga o`zaytirilib, kassatsiya tartibida ko`rilgan ishlar umumiy asoslarda takroran ko`rilishi mumkinligi hamda investitsiyaviy nizolar va raqobatga oid ishlar ham iqtisodiy sudlarga talluqliligi belgilandi.

Xulosa o`rnida shuni ta`kidlash joizki, sud-huquq tizimida olib borilayotgan islohotlar mamlakatimizda qonun ustivorligi va sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta`minlash, fuqarolar va tadbirkorlarning sudga bo`lgan ishonchini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Farg`ona viloyat sudining sudyasi

B.Ergashev

Jinoyat ishlari bo`yicha

Beshariq tuman sudining raisi

F.Sobirov

2021-02-25 11:08:40